



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 7-may

VI-100-58-7-96-K/24

Kattaqo'rg'on tumani

Kattaqo'rg'on tumanida 2024-yilda Kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2024-yil 30-yanvardagi 03-PA 2-666-sonli topshirig'iga muvofiq Kattaqo'rg'on tumanida aholi bandligini ta'minlash, daromadlarini oshirish orqali kambag'allik darajasini qisqartirish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni jadallashtirish maqsadida, xalq deputatlari Kattaqo'rg'on Tuman Kengashining VI chaqiriq 100-sessiyasi

QAROR QILADI:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2024-yil 30-yanvardagi 03-PA 2-666-sonli topshirig'i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
- Kattaqo'rg'on tumanida 2024-yilda kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi I-ilovaga;
-Kattaqo'rg'on tumanida 2024-yilda kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan namunaviy shtab tarkibini 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
- Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (N.Jo'lmatov), tuman Soliq inspeksiyasi (A.Turg'unov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Obbozov), tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (E.Raximov), tuman tijorat banklari rahbarlariga tadbirkorlikni rivojlantirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash natijasida yangi ish o'rinlarini yaratish, ishsiz fuqarolarning bandligini ta'minlash, daromadini oshirish hisobiga kambag'allik darajasini qisqartirib, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning belgilangan prognoz parametrlari ijrosini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.
- Tuman hokimining o'rinbosari - Investisiyalar, sanoat va savdo bo'limi (Y.Mamatov), tegishli tuman tashkilot va korxonalar rahbarlari, tumandagi mahalla fuqarolar yig'inlari raislari bilan birgalikda tumanda investitsiya dasturiga asosan shakllantirilgan loyihalarni tarmoq jadvallariga asosan belgilangan muddatlarda ishga tushurish, sanoat zonalaridagi bo'sh lotlarga salohiyatli tadbirkorlarni jalb qilgan holda yangi quvvatlarni ishga tushurib, ish o'rinlari yaratish choralari ko'rsin.
- Tuman hokimining o'rinbosari (Q.Tog'ayev), tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi (A.Rizonov), tuman Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari Kengashi (M.Mavlonov)ga tumandagi mahalla fuqarolar yig'inlari raislari bilan birgalikda qishloq xo'jaligi maydonlari, aholi tomarqalaridan samarali foydalanishni tashkil etish, kam

daromadli va ishsiz aholini paxta, g'alla, pillachilik yo'nalishlarida doimiy va mavsumiy ishlarga jalb qilish va daromadlarni oshirish vazifasi yuklatilsin.

6. Tuman hokimning o'rinbosari (N.Jo'lmatov), tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (D.Muminov) tegishli tuman tashkilotlari va korxonalari rahbarlari bilan birgalikda dasturlar doirasida ijtimoiy va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha qurilish-ta'mirlash tadbirkorlarning belgilangan muddatlarda sifatli ta'minlab, bu borada aholini qiynab kelayotgan muammolarni bartaraf etish choralari ko'rish vazifasi yuklatilsin.

7. Tuman hokimining o'rinbosari (N.Jo'lmatov), tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (S.Mingboyev) bilan birgalikda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, yoshlarga berilayotgan ta'lim darajasini yaxshilash, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar qamrovini oshirish bo'yicha tegishli choralarni ko'rsinlar.

8. Tuman Statistika bo'limi (G'.To'ychiyev) tumanda kambag'allik darajasini aniqlash bo'yicha aholi o'rtasida o'tkaziladigan so'rovnomalarning haqqoniyligini ta'minlasin va o'rganish natijasi bo'yicha aniqlangan ma'lumotlar asosida tuman hokimiga doimiy axborot kiritib borish vazifasi yuklatilsin.

9. Tuman shtabi (N.Jo'lmatov) tuman hokimining tegishli o'rinbosarlari bilan birgalikda tasdiqlangan dastur doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan monitoring yuritib, olib borilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni har oy yakuni bilan viloyat shtabiga axborot taqdim etib borilsin.

10. Mazkur qarorning ijro etishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (X.Tillayev) hamda tuman hokimining birinchi o'rinbosari N.Jo'lmatov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



TESHAYEV MUXIDDIN
XOLIKULOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining
2024-yil 7-maydagi
VI-100-58-7-96-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**Kattaqo'rg'on tumanida 2024 yilda kambag'allikni qisqartirish va
ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan
AMALIY REJALAR DASTURI**

Jami talab etiladigan mablag'		– 1,2 trln so'm	Yaratiladigan yangi ish o'rinlari		- 27 149 nafar
<i>shundan:</i>	bank kreditlari		<i>shundan:</i>	tasdiqlangan dastur (PQ-7)	- 24 850 nafar
	oilaviy tadbirkorlik dasturi	– 110,0 mlrd so'm		aniqlangan qo'shimcha rezerv	- 2 299 nafar
	biznesga birinchi qadam dasturi	– 14,6 mlrd so'm			
	boshqa manbalar	– 35,9 mlrd so'm	Kambag'allik darajasi		
	tashabbuskor mablag'i	– 827,1 mlrd so'm		2023-yil	- 11,7 %
	xorijiy investitsiya	– 269,2 mlrd so'm		2024-yil	- 5,7 %
	subsiya	– 3,7 mlrd so'm			
	boshqa manbalar	– 0,1 mlrd so'm			
	Xalq banki kredit	– 127,3 mlrd so'm			

T/r	Amaliy chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Talab etiladigan mablag'	Ijro muddati	Mas'ul korxonalar va tashkilotlar
I. AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH VA DAROMADLARINI OSHIRISH					
1.1. Doimiy va mavsumiy ishlarga jalb etish					
1.	2024-yilda doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarga 27 149 nafar aholini band qilish.	<p>1. Sanoat loyihalarini ishga tushirish hisobiga 1 688 nafar aholi bandligini ta'minlash; <i>Ma'lumot uchun: hududiy investitsiya loyihalari hisobidan 1 009 nafar.</i></p> <p>2. Xizmat ko'rsatish va servis loyihalari hisobiga 10 237 nafar aholi bandligini ta'minlash; <i>Ma'lumot uchun: doimiy 3 885 nafar, vaqtinchalik 6 352 nafar.</i></p> <p>3. Qishloq xo'jaligi loyihalarini ishga tushirish hisobiga 14 749 nafar; <i>Ma'lumot uchun: doimiy 1 388 nafar, vaqtinchalik 13 361 nafar.</i></p> <p>4. Qurilish sohasini rivojlantirish hisobiga 475 nafar aholi bandligini ta'minlash. <i>Ma'lumot uchun: doimiy 97 nafar, vaqtinchalik 378 nafar.</i></p>	<p>I. Korxonalar mablag'lari: 827,1 mlrd so'm</p> <p>II. Bank krediti: 160,5 mlrd so'm, shundan Xalq banki: 127,3 mlrd so'm</p> <p>III. Subsidiya: 3,7 mlrd so'm;</p> <p>IV. Xorijiy investitsiyalar: 269,2 mlrd so'm</p>	2024-yil davomida	Tuman hokimi o'rinbosarlari (<i>N.Jo'imatov, Y.Mamatov, D.Ismoilov, Q.Tog'ayev, L.Raxmonov, S.Jumayeva</i>), tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (<i>E.Raximov</i>), korxonalar va tashkilotlar, hokim yordamchilari
2.	Xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali jami 9 567 ta yangi ish o'rinlari yaratish.	<p>1. Xizmatlar sohasida o'zini-o'zi band qilish orqali 5 406 ta yangi ish o'rinlarini yaratish;</p> <p>2. Tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va mavjudlariga ko'mak berish orqali 1 031 ta yangi ish o'rinlarini yaratish; <i>Ma'lumot uchun:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - 1 ta ko'chani markaziy ko'chaga aylantirish orqali 16 ta ish o'rinlari; - 20 ta avtomagistral yo'li bo'yida loyihalarni 	<p>I. Korxonalar mablag'lari: 205,6 mlrd so'm</p> <p>II. Bank krediti: 1,5 mlrd so'm, shundan Xalq banki: 0,9 mlrd so'm</p>	2024-yil davomida	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (<i>N.Jo'imatov</i>), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (<i>M.Obbozov</i>), tuman Soliq inspeksiyasi (<i>A.Turg'unov</i>),

		<p>amalga oshirish hisobiga 158 ta ish o'rinlari;</p> <ul style="list-style-type: none"> - dehqon bozori hamda yirik savdo majmuasini tashkil etish orqali 25 ta ish o'rinlari; - 12 ta ijtimoiy xizmat ko'rsatish loyihalarini tashkil etish orqali 80 ta ish o'rinlari; - 1 ta turizm xizmatlari loyihalarini tashkil etish orqali 7 ta ish o'rinlari; - 10 ta agroxizmat turlarini tashkil etish orqali 28 ta ish o'rinlari. - 590 ta "K-savdo" orqali 590 ta ish o'rinlari. <p>3. 3 130 ta ish o'rinlarini norasmiy sektordan rasmiy sektorga o'tkazish;</p> <p>4. Hokim yordamchilari tomonidan mavjud moliyaviy resurslar doirasida imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ajratish orqali aholini o'zini o'zi band qilganlar ro'yxatidan o'tishini rag'batlantirib borish.</p> <p>5. Loyihalarni belgilangan muddatlarda ishga tushirish hamda doimiy monitoring qilib borish.</p>			<p>Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (E.Raximov), tjorat banklari</p>
3.	<p>Viloyatda tashkil etiladigan "Bo'sh ish o'rinlari yarmarkalari"ga tumandagi ishsizlarni keng jalb qilish.</p>	<p>1. Hokim yordamchilari tomonidan mahallalardagi 130 nafar ishsiz fuqarolar, jumladan 78 nafar yoshlar, 52 nafar ayollarni yarmarkalarda ishtirokini ta'minlash;</p> <p>2. Harbiy xizmatchilarning ishsiz oila a'zolari va mehnat migrantlarini tashkil etiladigan bo'sh ish o'rinlari yarmarka tadbirga taklif qilish.</p>	Mablag' talab etilmaydi	2024-yil davomida	<p>Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (N.Jo'Imatov), Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (E.Raximov), Mahallalar uyushmasi Kattaqo'rg'on tuman bo'limi (I.Nurmuradov), Kattaqo'rg'on tuman Yoshlar ishlari bo'limi (L.Abuqahharov)</p>

4.	Xorijiy davlatlarda ishlash istagini bildirgan fuqarolarni xorijiy davlatlarga <i>(Germaniya, Angliya, Janubiy Koreya va boshqa davlatlarga)</i> mehnat migratsiyasiga yuborilishini tashkil etish.	1. Hokim yordamchilari tomonidan mahallalardagi ishsiz 500 nafar fuqarolarni xorijiy davlatlarga mehnat migratsiyasiga yuborilishini tashkil etish. 2. Fuqarolarni xorijiy mehnat migratsiyasiga yuborishda hokim yordamchilari tomonidan doimiy ko'maklashish.	Mablag' talab etilmaydi	2024 yil davomida	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari <i>(N.Jo'Imatov)</i> , Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi <i>(E.Raximov)</i> , hokim yordamchilari
1.2. Korxon va tashkilotlarning bo'sh ish o'rinlariga fuqarolarni ishga joylashtirish					
5.	Tumandagi mavjud korxon va tashkilotlardagi vakant ish joylariga 364 nafar ishsiz fuqarolarni ishga joylashtirish.	1. Mahalla fuqarolar yig'inidagi hokim yordamchilariga ish so'rab murojaat qilgan fuqarolarni "Bandlik xizmati" axborot tizimi orqali ro'yxatga olish; 2. Fuqaroga ma'lumoti, mutaxassisligi, mehnat staji va qobiliyatiga qarab mavjud bo'lgan bo'sh ish o'rinlari va vakant lavozimlarini taklif qilish; 3. Fuqaroning roziligi bilan unga ishga joylashtirish uchun yo'llanma berib, ishga joylashishiga ko'maklashish.	Mablag' talab etilmaydi	2024-yil davomida	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari <i>(N.Jo'Imatov)</i> , tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi <i>(E.Raximov)</i> , hokim yordamchilari
1.3. Ihsiz fuqarolarni haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etish					
6.	Mahallalarda imkoniyati bor ishsiz oilalarni jamoat ishlariga jalb etish.	1. Haq to'lanadigan jamoat ishlariga ishga joylashish istagida bo'lgan fuqarolarni "Bandlik xizmati" axborot tizimi xizmati orqali ro'yxatga olish; 2. Imkoniyati bor ishsiz 248 nafar fuqarolarni, jamoat ishlariga jalb etish; 3. Korxon va tashkilotlarning buyurtmasiga asosan fuqarolarni obodonlashtirish, uy-joy va kommunal obyektlarni ta'mirlash, mavsumiy qishloq xo'jalik ishlariga, nogironlar, keksalar, bemorlar va boshqalarni parvarishlash	Budjet mablag'lari: 260,4 mln so'm	2024-yil davomida	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari <i>(N.Jo'Imatov)</i> , tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi <i>(E.Raximov)</i> , hokim yordamchilari

		ishlariga, daraxt ekish va parvarishlash, patronaj xizmati va ishlarga jalb qilish;			
II. TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH					
2.1. Aholini biznesga jalb qilishda moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish					
7.	Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida o'zini-o'zi band qilgan jismoniy shaxslar va kichik tadbirkorlik subyektlarini biznes loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash.	<p>1. Mahallalar kesimida kredit olish istagida bo'lgan 4 414 jismoniy shaxslar qisqa muddatlarda kreditlar ajratishni ta'minlash;</p> <p>2. Kredit mablag'lari ishlatilishini monitoring qilib borish;</p> <p>3. Ajratilgan kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklari 3%dan yuqori mahallalarda qarzdorliklarni undirish bo'yicha tuman hokimining</p> <p>1-o'rinbosari rahbarligida ishchi guruh tuzish hamda qarzdorliklarni undirish bo'yicha amaliy choralarni ko'rib borish;</p> <p>4. Kichik biznes subyektlarining loyihalarini ishga tushirish hisobiga 6 591 nafar aholi bandligini ta'minlash.</p>	Xalq banki krediti: 110,0 mlrd so'm	2024-yil davomida	Tuman hokimining o'rinbosarlari (<i>N.Jo'imatov, Y.Mamatov, D.Ismoilov, Q.Tog'ayev, L.Raxmonov, S.Jumayeva</i>), Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi (<i>Y.Mamatov</i>), Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (<i>E.Raximov</i>), Savdo-sanoat palatasi, (<i>O.Tursunulov</i>), tijorat banklari, hokim yordamchilari
8.	Hududlardagi aholi va kichik tadbirkorlik subyektlariga garovsiz kredit mablag'larini ajratish.	<p>1. Mahalladagi 200 ta aholi va tadbirkorlik subyektlariga 100,0 mln.so'mgacha jami 20,0 mlrd so'm miqdorida garovsiz kreditlar ajratish evaziga 300 nafar fuqaroning bandligini ta'minlash;</p> <p>2. Hududlardagi 23 ta kichik tadbirkorlik subyektlariga 300,0 mln so'mgacha jami 6,9 mlrd so'm miqdorida garovsiz kreditlar ajratish evaziga 138 nafar fuqaroning bandligini ta'minlash.</p> <p>3. Hokim yordamchilari tomonidan o'z</p>	Xalq banki krediti: 26,9 mlrd so'm	2024-yil davomida	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (<i>O.Ergashev</i>), tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (<i>T.Umarov</i>), tijorat banklari

		<p>hududidagi tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan fuqarolar va korxonalarni imtiyozli kredit ajratish bo'yicha tavsiyanomalarni tegishli tijorat bankiga yuborish;</p> <p>4. Imtiyozli kreditlarning maqsadli ishlatilishini doimiy monitoring qilib borish.</p>			
2.2. Tadbirkorlik subyektlari sonini ko'paytirish va aholini biznesga jalb qilish					
9.	<p>"Biznesga birinchi qadam" bank kartasi orqali 14,6 mlrd so'mlik mikroqarz ajratish hisobiga yillik ijtimoiy soliq to'lovlarini to'layotgan o'zini o'zi band qilgan 3 330 nafar shaxslarni biznesga jalb qilish.</p>	<p>1. "Biznesga birinchi qadam" bank kartasi afzalliklari, mikroqarz ajratish bo'yicha targ'ibot va tushuntirish ishlarini olib borish;</p> <p>3. Mikroqarz ajratilgan jismoniy shaxslardan ijtimoiy soliq to'lovini undirilishini ta'minlash;</p> <p>4. O'zini o'zi band qilgan shaxslarni kichik biznes subyektiga o'tishi uchun zaruriy ko'mak berib borish;</p> <p>5. Belgilangan tadbirlar bo'yicha amaliy ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirib borish hamda viloyat ishchi guruhiga axborot berib borish.</p>	<p>Xalq banki krediti: 14,6 mlrd so'm</p>	<p>2024-yil davomida</p>	<p>Tuman hokimining o'rinbosarlari (<i>N.Jo'Imatov, Y.Mamatov, D.Ismoilov, Q.Tog'ayev, L.Raxmonov, S.Jumayeva</i>), Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi (<i>Y.Mamatov</i>), Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (<i>E.Raximov</i>), Savdo-sanoat palatasi, (<i>O.Tursunulov</i>), tijorat banklari, hokim yordamchilari</p>
10.	<p>Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi tomonidan tijorat banklariga mablag'lar ajratish hisobiga sanoat ipotekasi tizimi asosida loyiha</p>	<p>1. "Kattaqo'rg'on elektrotexnika zavodi" MCHJga sanoat ipotekasi tizimi asosida 5,0 mln dollar mablag'larini ajratish.</p> <p>2. Loyiha tashabbuskori tomonidan bino-inshoot xarid qilganidan so'ng loyihani ishga tushirishga va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga</p>	<p>Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi: 5,0 mln dollar</p>	<p>2024-yil davomida</p>	<p>Tuman hokimining o'rinbosari (<i>Y.Mamatov</i>), tuman savdo-sanoat palatasi (<i>O.Tursunulov</i>), tijorat banklari</p>

	tashabbuskorlariga bino- inshootlar xarid qilishga ko'maklashish.	chiqarishga kumaklashish.			
2.3. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kengaytirish					
11.	Tumanda tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab quvvatlash orqali ularning sonini ko'paytirish.	<p>1. Tumanda jami 1 800 tadan ortiq tadbirkorlik subyektlarini, shundan 640 tadan ortiq yuridik, 1 160 tadan ortiq yakka tartibdagi tadbirkorlarni tashkil etish.</p> <p>2. Mahallalarda hokim yordamchilari ko'magida aholini tadbirkorlikka jalb etish maqsadida 3,7 mlrd so'm subsidiyalar ajratish.</p> <p>3. 3 080 ta yangi ish o'rinlarini tashkil etish.</p>	<p>I. Korxonalar mablag'lari: 612 mln so'm</p> <p>II. Subsidiya 3,7 mlrd so'm</p>	2024-yil davomida	Tuman hokimining o'rinbosarlari (<i>N.Jo'imatov, Y.Mamatov, D.Ismoilov, Q.Tog'ayev, L.Raxmonov, S.Jumayeva</i>), Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, (<i>Y.Mamatov</i>), Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (<i>E.Raximov</i>), Savdo-sanoat palatasi, (<i>O.Tursunulov</i>), tijorat banklari, hokim yordamchilari
12.	Faoliyat yuritmayotgan korxonalar ish faoliyatini tiklash va ishlab chiqarish quvvatini kamaytirgan korxonalar ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish.	<p>1. 129 ta faoliyatini yuritmayotgan tadbirkorlik subyektlar faoliyatini qayta tiklash;</p> <p>2. 18 ta korxonalarda ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish.</p> <p>3. 446 ta yangi ish o'rinlarini yaratish</p>	<p>I. Bank krediti: 5,7 mlrd so'm, shundan <i>Xalq banki</i>: 3,4 mlrd.so'm</p> <p>II. Korxonalar mablag'lari: 4,2 mlrd so'm</p> <p>III. Boshqa mablag'lar: 920 mln so'm</p>	2024-yil davomida	Tuman hokimining o'rinbosarlari (<i>N.Jo'imatov, Y.Mamatov, D.Ismoilov, Q.Tog'ayev, L.Raxmonov, S.Jumayeva</i>), Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, (<i>Y.Mamatov</i>),

					Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (E.Raximov), Savdo-sanoat palatasi, (O.Tursunulov), tijorat banklari, hokim yordamchilari
13.	Mahallalarda Hokim yordamchilari tomonidan aniqlangan 177 ta yangi tadbirkorlik loyihalarni ishga tushirish choralarini ko'rish	<p>1. Sanoat sohasida qiymati 11,7 mlrd. so'mlik 44 ta loyihalar ishga tushirilib, 255 ta yangi ish o'rinlarini yaratish;</p> <p>2. Xizmat ko'rsatish sohasida qiymati 36,1 mlrd. so'mlik 119 ta loyihalar ishga tushirilib, 670 ta yangi ish o'rinlarini yaratish;</p> <p>3. Qishloq xo'jaligi sohasida 3,7 mlrd. so'mlik 14 ta loyihalar ishga tushirilib, 69 ta yangi ish o'rinlarini yaratish.</p> <p>4. Ishga tushiriladigan loyihalarning har biriga alohida mas'ullar biriktirish va doimiy monitoringini olib borish.</p>	I. Korxonalar mablag'lari: 39,8 mlrd so'm , II. Bank krediti: 11,4 mlrd so'm , <i>shundan Xalq banki: 68,4 mlrd so'm</i> III. Subsidiya: 145 mln so'm	Yil davomida	Tuman hokimining o'rinbosari (Y.Mamatov), Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (E.Raximov), tijorat banklari, hokim yordamchilari
2.4. Tadbirkorlar va aholi o'rtasida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish					
14.	Viloyatda aholiga ijara huquqi bilan berilayotgan yer maydonlarida mahsulotni yetishtirishdan boshlab, uni sotishgacha bo'lgan zanjirni yaratishni nazarda tutuvchi "agregator" va "kooperativ" tizimiga asoslangan	<p>1. Aholiga ijara huquqi bilan berilayotgan yer maydonlarida drayver va ixtisoslashuvdan kelib chiqib, tanlab olingan yer uchastkalarini lotlarga ajratgan holda elektron onlayn auksion savdolariga chiqarish;</p> <p>3. Tumanda kamida 3 tadan "Agregator" va "Kooperativ" tizimiga asoslangan loyihalarni amalga oshirish.</p> <p>4. Eksportbop sabzavot ekiladigan ekin yerlarda sabzavotchilik dehqon xo'jaliklarini tashkil etish hisobidan 50 ta doimiy ish o'rinlarini yaratish.</p>	Korxonalar mablag'lari: 250 mln so'm	2024-yil davomida	Tuman hokimining o'rinbosari (Q.Tog'ayev), Tuman qishloq xo'jaligi bo'limi (A.Rizonov), fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (M.Mavlonov), Kambag'allikni

	loyihalarni amalga oshirish.				qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (E.Raximov), Kadastrlar palatasi tuman bo'limi (F.Ibragimov), tijorat banklari
2.5. Tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan fuqarolarni tadbirkorlik va kasb-hunarga o'qitish					
15.	Jami 885 nafar aholini, jumladan yoshlar va xotin-qizlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga o'qitish .	<p>1. Mehnat bozorining joriy va istiqboldagi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda kasb-hunarga o'qitish choralarini ko'rish. Bunda:</p> <ul style="list-style-type: none"> - mehnat bozorida raqobatlasha olmaydigan xotin-qizlarni kasbga o'qitish bo'yicha; - umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar maktablari, akademik litseylar va professional ta'lim muassasalari bitiruvchi kurs o'quvchi qizlarini asosiy ta'lim jarayoniga ta'sir etmagan holda qisqa muddatli davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida axborot texnologiyalari bo'yicha tashkil etilgan ta'lim kurslarida o'qitish. <p>2. Tasdiqlangan Kasb-hunarga o'qitish reja grafigiga asosan o'qitish ishlarini tashkillashtirish.</p>	Boshqa manbalar: 187,0 mln so'm	2024-yil davomida	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (N.Jo'Imatov), Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (E.Raximov)
16.	Yangi moliyaviy xizmatlarni joriy qilish , shu jumladan mikromoliyalashni kengaytirish orqali 69 ta MFYdagi 14,9 ming nafar aholini biznesga jalb qilish.	<p>1. Mahallalarda yangi moliyaviy xizmatlarni orqali:</p> <ul style="list-style-type: none"> - 12 100 nafari o'zini-o'zi band qilish; - 740 nafari YATTLar tashkil etish; - 430 nafari yangi korxonalar tashkil etish; - 1 700 nafari dehqon xo'jaliklari tashkil etish hisobiga biznesga jalb qilish. <p>2. Aholi va tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan kredit va boshqa moliyaviy</p>	Korxonalar mablag'lari: 612 mln so'm	2024-yil davomida	Tuman hokimining o'rinbosarlari (N.Jo'Imatov, Y.Mamatov, D.Ismoilov, Q.Tog'ayev, L.Raxmonov, S.Jumayeva), Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi

		<p>qo'llab-quvvatlash instrumentlarining oyma-oy mahallalar kesimida tasdiqlangan o'zlashtirish jadvaliga asosida bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha amaliy choralar ko'rib borish.</p> <p>3. Belgilangan tadbirlar bo'yicha amaliy ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirib borish hamda tuman ishchi guruhiga axborot berib borish.</p>			<p>(Y.Mamatov), Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (E.Raximov), Savdo-sanoat palatasi (O.Tursunulov), tijorat banklari, hokim yordamchilari</p>
2.6. Sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik va chorvachilik mikromarkazlari faoliyatini rivojlantirish					
17.	Kasanachilik faoliyatini jadal rivojlantirish maqsadida, mahallalarda kasanachilik faoliyatini yo'lga quyish.	Tumanda kamida 12 ta kasanachi korxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish va ular negizida 160 ta ish o'rinlari yaratish.	<p>37. Budjet mablag'lari: 680 mln so'm</p> <p>II. Korxonalar mablag'lari: 120 mln so'm</p>	2024-yil davomida	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (N.Jo'Imatov), Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (E.Raximov), tijorat banklari, hokim yordamchilari
18.	Tumanda yangi mikroloyihalarni ishga tushirish.	<p>1. 414 ta yangi mikroloyihalarni ishga tushirish uchun zarur tashabbuskorni aniqlash;</p> <p>2. Moliyaviy masalalar, kommunal infratuzilma tarmoqlariga ulanish va boshqa yo'nalishlarda ko'maklashish.</p> <p>3. Tashkil etilayotgan mikroloyihalarda 2 000 ta yangi ish o'rinlarini yaratish.</p>	<p>I. Bank krediti: 11,8 mlrd so'm, shundan Xalq banki 7,1 mlrd so'm,</p> <p>II. Korxonalar mablag'lari 58,1 mlrd so'm</p>	2024-yil davomida	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (N.Jo'Imatov), tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (E.Raximov), tijorat banklari, hokim yordamchilari
2.7. Bo'sh turgan davlat mulki obyektlari va bino – inshootlaridan samarali foydalanish					
19.	Mahallada bo'sh	Tumandagi 1 ta bo'sh bino va inshootlarda	Budjet mablag'lari: 500 mln	2024-yil	Tuman hokimining

	turgan va bir yildan buyon auksion savdolarida sotilmasdan turgan davlat mulki bo'lgan bino-inshootlar, shuningdek, kasb-hunar kollejlarning foydalanilmasdan bo'sh turgan binolaridan (past koeffitsiyentli maktablarning bo'sh turgan binolari, mehnat xonalari va boshqalar) amaliy monomarkaz tashkil qilish.	ishsiz fuqarolarni kasbga o'qitish bo'yicha amaliy monomarkaz tashkil qilish.	so'm	davomida	birinchi o'rinbosari (N.Jo'Imatov), kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (E.Raximov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Turg'unov), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (kelishuv asosida)
2.8. Bo'sh yer maydonlarini auksion savdolariga chiqarish orqali tadbirkorlikni rivojlantirish					
20.	O'tkazilgan inventarizatsiyada aniqlangan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish obyektlarini qurish mumkin bo'lgan bo'sh yer maydonlaridan samarali foydalanish.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Aniqlangan 470 ta 35,5 ga bo'sh yer maydonlarini mas'ul tashkilotlar bilan kelishish jarayonlarini jadallashtirish; 2. Yer maydonlarini auksion savdolarga chiqarish; 3. Tanlov g'oliblarining loyiha takliflari manzilli ro'yxatini shakllantirish; 4. Loyiha tashabbuskorlarining talabi asosida kredit mablag'lari ajratish; 6. Loyihalarni belgilangan muddatlarda ishga tushirilishini doimiy monitoring qilib borish. 	Mablag' talab etilmaydi	2024-yil davomida	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (N.Jo'Imatov), Tuman Kadastrlarlar palatasi (F.Ibragimov), Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (E.Raximov)
2.9. Inflyatsiyani jilovlash va asosiy turdagi mahsulotlarning narh-navo barqarorligini ta'minlash					
21.	Inflyatsiyani jilovlash maqsadida asosiy	1. Oziq ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 8,2% ga oshirish;	Korxonalar mablag'lari: 7,7 mlrd so'm	2024-yil davomida	Tuman hokimining o'rinbosarlari

	turdagi iste'mol mahsulotlari narxlarini barqarorlashtirish choralarini ko'rish.	<p>2. Xalq iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 10,2%ga oshirish;</p> <p>3. Aholi xonadonlarida 6,6 ming gektar tomorqalarda 116,8 ming tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish;</p> <p>4. aholini biznesga jalb qilish, tadbirkorlar va aholi o'rtasida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish.</p> <p>5. qayta foydalanishga topshirilgan yer maydonlarida qo'shimcha 42,8 ming tonna ozuqa va 3,4 ming tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni ta'minlash.</p>			(N.Jo'lmatov, L.Raxmonov, Q.Tog'ayev, Y.Mamatov), Tuman statistika bo'limi (G'.To'ychiyev), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Obbozov)
III. IJTIMOY HIMOYA					
22.	Budjet tashkilotlarida ishlovchi 12 092 ta xodimlarning 476,6 mlrd so'm ish haqi to'lovlari va unga ajratmalarni o'z vaqtida ta'minlash.	Budjet tashkilotlaridan ish haqqi to'lovlariga bo'lgan talablarni shakllantirib mablag'larni o'z vaqtida ijro etish choralarini ko'rish.	Budjet mablag'lari: 476,6 mlrd so'm	Har oyning 1-5 va 15-20 sanasida	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Obbozov), tuman G'aznachilik bo'limi (N.Vasiyev), Budjet tashkilotlari
23.	Ijtimoiy himoyaga muhtoj 11 885 nafar fuqarolarning 53,8 mlrd so'm nafaqa to'lovlari o'z vaqtida to'lash choralarini ko'rish.	Ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarning nafaqa to'lovlari to'lash bo'yicha talab etiladigan mablag'larni mahalla Budjetga moliyalashtirish va xarajatlarni amalga oshirish.	Budjet mablag'lari: 53,8 mlrd so'm	Har oyning 10-15 sanasida	Tuman G'aznachilik bo'limi (N.Vasiyev), Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi (I.Tog'ayev), Tuman Inson ijtimoiy xizmatlar markazi (N.Jurayev), Budjet tashkilotlari
IV. QISHLOQ XO'JALIGI SOHASINI ZAMONAVIY INSTRUMENTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH					
4.1. Qishloq xo'jaligi maydonlaridan samarali foydalanish					
24.	Mahallalarda	1. 7 600 nafar ishsiz va daromadi kam	Korxonalar mablag'lari:	2024-yil	Tuman qishloq

	yashovchi ishsiz va kam daromadli fuqarolarni ixtiyoriy ravishda paxta yig'im-terimiga jalb qilish.	fuqarolarni ixtiyoriy ravishda paxta yig'im-terimiga jalb qilish; 2. Paxta yig'im-terimiga jalb qilingan fuqarolarni mavsumiy ishchi sifatida ro'yxatdan o'tkazish.	27,4 mlrd so'm	sentyabr-oktyabr	xo'jaligi bo'limi (A.Rizonov), tuman Suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi korxonasi va tashkilotlar
